

IDEAL JAMIYAT G'OYASINING UTOPIYADAN PRAGMATIK MODELLARGACHA EVOLYUTSIYASINING MAFKURAVIY AHAMIYATI

Olimova Muxtasar Rayimovna

Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Guliston davlat universiteti "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot insoniyat siyosiy-falsafiy tafakkuri tarixida ideal jamiyat g'oyasining shakllanishi va rivojlanish jarayonini tahlil qilishga bag'ishlangan bo'lib, unda utopik tasavvurlardan boshlangan mazkur konsepsiya qanday qilib ijtimoiy-siyosiy nazariyalarga, keyinchalik esa amaliy davlat boshqaruvi modellariga ta'sir ko'rsatganligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot davomida ideal jamiyat g'oyasining antik falsafa, o'rta asr diniy tafakkuri, yangi davr siyosiy nazariyalari hamda zamonaviy siyosiy falsafadagi talqinlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ideal jamiyat konsepsiyasi nafaqat normativ siyosiy ideal sifatida, balki jamiyat taraqqiyotining mafkuraviy orientiri sifatida ham namoyon bo'lishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ideal jamiyat g'oyasi tarixiy tafakkur evolyutsiyasida muhim nazariy kategoriya bo'lib, u jamiyatning siyosiy tuzilishi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy institutlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ideal jamiyat, utopiya, siyosiy falsafa, mafkura, tarixiy tafakkur, davlat nazariyasi.

THE IDEOLOGICAL SIGNIFICANCE OF THE EVOLUTION OF THE IDEAL SOCIETY IDEA FROM UTOPIA TO PRAGMATIC MODELS

Olimova Mukhtasar Rayimovna

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy, Associate Professor of the
Department of Social Sciences, Gulistan State University

Abstract: This study explores the historical evolution of the idea of the ideal society within the framework of political philosophy and intellectual history. The research examines how utopian visions gradually transformed into normative political theories and later influenced practical models of governance. The analysis focuses on the development of the concept of the ideal society in ancient philosophy, medieval religious thought, early modern political theory, and contemporary philosophical discourse. The study argues that the idea of an ideal society functions not only as a normative philosophical construct but also as a powerful ideological framework that shapes political imagination and social organization.

Keywords: ideal society, utopia, political philosophy, ideology, historical thought.

ИДЕОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ЭВОЛЮЦИИ ИДЕИ ИДЕАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА ОТ УТОПИИ К ПРАГМАТИЧЕСКИМ МОДЕЛЯМ

Олимова Мухтасар Райимовна

Доктор философии (PhD), доцент кафедры социальных наук
Гулистанского государственного университета.

Аннотация: В статье рассматривается эволюция идеи идеального общества в истории политико-философской мысли. Исследование направлено на анализ того, каким образом утопические представления о совершенном обществе трансформировались в теоретические модели политического устройства и оказали влияние на практику государственного управления. Особое внимание уделяется интерпретациям идеи идеального общества в античной философии, средневековой теологической мысли и в теориях Нового времени. Показано, что данная концепция выполняет не только нормативную функцию, но и играет важную идеологическую роль в формировании общественно-политических представлений.

Ключевые слова: идеальное общество, утопия, политическая философия, идеология.

Kirish

Insoniyat tarixida jamiyatni mukammal shaklda tashkil etish haqidagi tasavvurlar deyarli barcha sivilizatsiyalarning intellektual merosida uchraydi va bu holat ideal jamiyat g'oyasining inson tafakkuridagi chuqur ildizlarini ko'rsatadi. Inson o'zining ijtimoiy hayotini tartibga solishga intilgan davrdan boshlab adolat, tenglik va farovonlik tamoyillariga asoslangan jamiyat modeli haqidagi fikrlar shakllana boshlagan. Bunday tasavvurlar dastlab mifologik va diniy qarashlar bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, keyinchalik ular falsafiy tafakkur rivojlanishi bilan birga nazariy shaklga ega bo'la boshladi. Antik davr falsafasida ideal jamiyat masalasi davlat tuzilishi, adolat va axloqiy tartib muammolari bilan uzviy bog'liq holda ko'rib chiqilgan. Platonning "Davlat" dialogida tasvirlangan ideal polis modeli, Aristotelning siyosiy tuzumlar haqidagi tahlillari insoniyat tarixida ideal jamiyat konsepsiyasining ilk nazariy shakllari sifatida qaraladi. O'rta asrlarda esa ideal jamiyat tasavvurlari ko'proq diniy dunyoqarash doirasida shakllanib, ilohiy adolat va mukammal jamiyat tushunchalari bilan bog'langan. Yangi davrga kelib ideal jamiyat g'oyasi utopik siyosiy tasavvurlar orqali rivojlandi. Thomas More, Tommaso Campanella kabi mutafakkirlar o'z asarlarida jamiyatni ideal tarzda tashkil etish

mumkinligi haqidagi nazariy modellarni taklif qildilar. Biroq ushbu utopik tasavvurlar keyinchalik siyosiy nazariya va ideologiyalarning shakllanishiga ham muhim ta'sir ko'rsatdi. Zamonaviy siyosiy falsafada esa ideal jamiyat g'oyasi faqat nazariy konstruktsiya sifatida emas, balki real siyosiy tizimlar va ijtimoiy institutlarni baholash mezoni sifatida ham qaralmoqda. Shu sababli ideal jamiyat g'oyasining evolyutsiyasini o'rganish nafaqat siyosiy falsafa tarixini anglash, balki zamonaviy ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mafkuraviy asoslarini tushunishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metod.

Ideal jamiyat g'oyasi siyosiy va falsafiy tafakkur tarixida eng uzoq davom etgan konseptual muammolardan biri sifatida ko'riladi va uning mazmuni turli davrlarda turli ijtimoiy sharoitlar hamda intellektual paradigmalarga bog'liq holda shakllangan. Antik davr falsafasida bu masala davlat tuzilishi, adolat va axloqiy tartib muammolari bilan uzviy bog'liq holda muhokama qilingan bo'lib, ayniqsa Platonning "Davlat" dialogida tasvirlangan ideal polis modeli jamiyatni qat'iy ierarxik tuzilma asosida tashkil etish g'oyasini ilgari surgan. Aristotel esa davlat shakllarini tahlil qilib, mukammal siyosiy tizim jamiyatning ijtimoiy tuzilishi, iqtisodiy munosabatlari va axloqiy qadriyatlari bilan bog'liq holda shakllanishini ta'kidlagan. Antik falsafadagi ushbu qarashlar keyingi davrlarda ideal jamiyat haqidagi nazariyalar uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qildi. O'rta asrlar tafakkurida ideal jamiyat tushunchasi asosan diniy dunyoqarash bilan bog'liq holda talqin qilinib, insoniyat taraqqiyoti ilohiy reja bilan izohlangan. Avreliy Avgustin va Foma Akvinskiy kabi mutafakkirlar mukammal jamiyat haqidagi qarashlarni ilohiy adolat va xristian axloqiy qadriyatlari bilan bog'lab tushuntirganlar. Yangi davrga kelib ideal jamiyat g'oyasi utopik adabiyot va siyosiy falsafa doirasida yangi mazmun kasb eta boshladi. Thomas Morening "Utopiya" asari, Tommaso Campanellaning "Quyosh shahri" asari hamda Francis Baconning "Yangi Atlantida" asarlarida jamiyatni mukammal tarzda tashkil etish mumkinligi haqidagi nazariy modellar ishlab chiqilgan. Bu asarlarda iqtisodiy tenglik, jamoaviy mulkchilik, ilm-fan taraqqiyoti va adolatli boshqaruv kabi tamoyillar asosida tashkil etilgan ideal jamiyat tasvirlanadi. Biroq utopik adabiyot ko'pincha real siyosiy jarayonlardan ajralgan holda tasvirlanganligi sababli keyinchalik tanqidiy tahlil qilina boshladi. Ma'rifat davri faylasuflari, xususan Rousseau, Montesquieu va Kant ideal jamiyat muammosini siyosiy institutlar va huquqiy tartib kontekstida tahlil qilib, erkinlik, fuqarolik tengligi va ijtimoiy shartnoma tamoyillariga asoslangan siyosiy tizimlarni asoslab berishga harakat qildilar. XIX asrga kelib ideal jamiyat g'oyasi ijtimoiy-iqtisodiy nazariyalar bilan bog'liq holda yangi mazmun kasb etdi. Karl Marks va Fridrix Engels jamiyat taraqqiyotini sinfiy kurash va ishlab chiqarish munosabatlari evolyutsiyasi orqali tushuntirib, kelajak jamiyatini sinfsiz ijtimoiy tizim sifatida tasavvur qildilar. XX asr siyosiy falsafasida esa ideal jamiyat muammosi liberal

demokratiya, ijtimoiy davlat va fuqarolik jamiyati nazariyalari doirasida qayta talqin qilina boshladi. Ayniqsa John Rawlsning “Adolat nazariyasi” asarida adolatli jamiyat tushunchasi “adolat – teng imkoniyatlar va erkinliklarning muvozanati” tamoyiliga asoslanib talqin qilindi. Shu bilan birga zamonaviy siyosiy falsafada ideal jamiyat g‘oyasi ko‘proq normativ nazariya sifatida qaralib, u real siyosiy tizimlarni baholash mezoni sifatida qo‘llanilmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ideal jamiyat g‘oyasi tarix davomida utopik tasavvurlardan boshlab murakkab siyosiy va ijtimoiy nazariyalar darajasigacha rivojlangan bo‘lib, uning evolyutsiyasi insoniyat tafakkurining ijtimoiy adolat, erkinlik va taraqqiyot haqidagi qarashlari bilan chambarchas bog‘liq.

Mazkur tadqiqot ideal jamiyat g‘oyasining tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, unda falsafa tarixi, siyosiy nazariya va tarixshunoslik metodologiyasining integratsiyasiga asoslangan kompleks ilmiy yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida tarixiy-komparativ tahlil, konseptual tahlil va tarixiy rekonstruksiya metodlaridan foydalanildi. Tarixiy-komparativ yondashuv turli davrlarda shakllangan ideal jamiyat konsepsiyalarini o‘zaro solishtirish imkonini berib, ularning umumiy xususiyatlari va farqli jihatlarini aniqlashga xizmat qildi. Konseptual tahlil metodi yordamida utopiya, ideal jamiyat, adolat, erkinlik, ijtimoiy tenglik va siyosiy legitimlik kabi asosiy kategoriyalarning nazariy mazmuni o‘rganildi hamda ularning turli falsafiy maktablarda qanday talqin qilinganligi tahlil qilindi. Tarixiy rekonstruksiya metodi orqali turli davrlarda shakllangan siyosiy-falsafiy qarashlar qayta tiklanib, ularning paydo bo‘lishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy va madaniy omillar aniqlashtirildi. Tadqiqot davomida ideal jamiyat g‘oyasining evolyutsiyasi uch asosiy bosqich orqali tahlil qilindi: birinchi bosqich utopik-falsafiy davr bo‘lib, unda ideal jamiyat asosan normativ tasavvurlar orqali ifodalangan; ikkinchi bosqich nazariy-siyosiy davr bo‘lib, bunda ideal jamiyat konsepsiyasi siyosiy institutlar va huquqiy tizimlar bilan bog‘liq holda shakllangan; uchinchi bosqich esa zamonaviy pragmatik davr bo‘lib, unda ideal jamiyat g‘oyasi real siyosiy tizimlar va ijtimoiy institutlarni baholash mezoni sifatida qo‘llanila boshlagan. Ushbu metodologik yondashuv ideal jamiyat g‘oyasining tarixiy evolyutsiyasini tizimli tahlil qilish hamda uning zamonaviy siyosiy va mafkuraviy jarayonlardagi o‘rnini aniqlash imkonini berdi.

Natijalar.

Olib borilgan nazariy tahlillar ideal jamiyat g‘oyasining insoniyat siyosiy tafakkuri tarixida muhim konseptual evolyutsiyani boshdan kechirganini ko‘rsatadi. Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, antik davrdagi ideal jamiyat tasavvurlari asosan axloqiy va siyosiy tartibni mukammal shaklda tashkil etish g‘oyasiga asoslangan bo‘lib, ular jamiyatdagi ierarxiya, adolat va siyosiy barqarorlik masalalariga qaratilgan. Platon va Aristotel tomonidan ishlab chiqilgan nazariy qarashlar ideal jamiyatni davlat tuzilmasi va siyosiy institutlar bilan bog‘liq holda tushuntirishga

xizmat qilgan. Keyingi tarixiy davrlarda, ayniqsa o'rta asrlarda ideal jamiyat konsepsiyasi diniy-falsafiy talqinlar orqali rivojlanib, mukammal jamiyat tasavvuri ilohiy adolat va ma'naviy mukammallik bilan bog'langan. Yangi davr siyosiy tafakkurida esa bu g'oya utopik adabiyot orqali yangi shaklga ega bo'lib, jamiyatni tubdan qayta tashkil etish mumkinligi haqidagi nazariy modellar shakllangan. Thomas More va Campanella kabi mutafakkirlarning asarlarida tasvirlangan jamiyat modellarida iqtisodiy tenglik, jamoaviy mulkchilik va ilm-fan rivojiga asoslangan ijtimoiy tuzum g'oyasi ilgari surilgan. Biroq tarixiy rivojlanish jarayonida ideal jamiyat haqidagi qarashlar asta-sekin utopik tasavvurlardan siyosiy nazariyalar darajasiga o'tib, jamiyatni real ijtimoiy institutlar orqali takomillashtirish masalasi bilan bog'lana boshladi. XIX va XX asrlarda siyosiy falsafa doirasida ishlab chiqilgan nazariyalar ideal jamiyat tushunchasini pragmatik siyosiy modellar bilan uyg'unlashtirishga intildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ideal jamiyat g'oyasi tarix davomida uch asosiy yo'nalishda rivojlangan: birinchisi normativ-falsafiy model bo'lib, unda jamiyatning mukammal shakli nazariy jihatdan tasvirlangan; ikkinchisi ideologik model bo'lib, unda ideal jamiyat tasavvurlari siyosiy mafkuralar shakllanishida muhim rol o'ynagan; uchinchisi esa pragmatik model bo'lib, unda ideal jamiyat g'oyasi real siyosiy institutlarni takomillashtirish uchun nazariy mezon sifatida qo'llanilgan. Bu evolyutsiya jarayoni ideal jamiyat g'oyasining faqat nazariy konstruktsiya emas, balki jamiyat taraqqiyotining mafkuraviy yo'nalishini belgilovchi muhim konseptual vosita ekanligini ko'rsatadi.

Muhokama.

Olingan natijalar siyosiy falsafa va tarixiy tafakkur rivojlanishida ideal jamiyat g'oyasi muhim metodologik va mafkuraviy funksiyani bajarganini ko'rsatadi. Tarixiy tajriba shuni ko'rsatadiki, jamiyat taraqqiyotining har bir bosqichida insoniyat mukammal ijtimoiy tuzum haqidagi tasavvurlarni ishlab chiqishga intilgan. Bu tasavvurlar ko'pincha mavjud siyosiy tizimlarning kamchiliklarini tanqid qilish hamda yangi ijtimoiy tartib haqidagi g'oyalarni shakllantirish uchun nazariy asos vazifasini bajargan. Utopik adabiyotda tasvirlangan ideal jamiyat modellarini faqat fantaziya mahsuli sifatida baholash to'liq to'g'ri bo'lmaydi, chunki ular ko'pincha real tarixiy muammolarga javob sifatida paydo bo'lgan. Masalan, XVI–XVII asrlarda yaratilgan utopik asarlar feodal jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik va iqtisodiy adolatsizlik muammolariga javoban shakllangan. Keyinchalik bu g'oyalar siyosiy nazariyalar va ideologiyalar rivojiga muhim ta'sir ko'rsatgan. Shu bilan birga zamonaviy siyosiy falsafa ideal jamiyat konsepsiyasini mutlaq mukammallik modeli sifatida emas, balki normativ mezon sifatida talqin qiladi. John Rawls, Jürgen Habermas va boshqa zamonaviy faylasuflar jamiyatni mukammal shaklda tasvirlashdan ko'ra, adolatli siyosiy institutlar va demokratik boshqaruv tizimini shakllantirish muammosiga e'tibor qaratganlar. Bu yondashuv ideal jamiyat g'oyasini utopik tasavvurlardan pragmatik siyosiy nazariya darajasiga olib chiqdi. Natijada

ideal jamiyat konsepsiyasi jamiyatning real ijtimoiy tuzilishini tahlil qilish va uni takomillashtirish uchun muhim nazariy instrument sifatida qaralmoqda. Shu nuqtai nazardan ideal jamiyat g'oyasi zamonaviy siyosiy tafakkurda mafkuraviy yo'nalish beruvchi konsepsiya sifatida o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

Xulosa.

O'tkazilgan tadqiqot ideal jamiyat g'oyasining tarixiy evolyutsiyasi insoniyat siyosiy va falsafiy tafakkurining rivojlanish jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Antik davr falsafasidan boshlab zamonaviy siyosiy nazariyalargacha bo'lgan intellektual an'ana ideal jamiyat haqidagi tasavvurlar doimo ijtimoiy adolat, siyosiy barqarorlik va inson erkinligi muammolari bilan bog'liq holda shakllanganini ko'rsatadi. Tarixiy tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ideal jamiyat g'oyasi dastlab utopik tasavvurlar shaklida paydo bo'lgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan siyosiy nazariya va ijtimoiy falsafaning muhim kategoriyasiga aylangan. Ushbu konsepsiya jamiyatni mukammal tarzda tashkil etish haqidagi nazariy modellarni ishlab chiqish bilan bir qatorda mavjud siyosiy tizimlarni tanqidiy baholash mezonini sifatida ham xizmat qilgan. Zamonaviy siyosiy tafakkurda ideal jamiyat g'oyasi utopik mukammallik modeli sifatida emas, balki jamiyatni yanada adolatli, barqaror va demokratik tarzda rivojlantirishga yo'naltirilgan normativ konsepsiya sifatida talqin qilinadi. Shu sababli ideal jamiyat g'oyasining evolyutsiyasini o'rganish nafaqat siyosiy falsafa tarixini anglash, balki zamonaviy mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Plato. The Republic. – Oxford: Oxford University Press, 2008. – 416 p. – (foydalanilgan sahifalar: 54–79).
2. Aristotle. Politics. – Cambridge: Cambridge University Press, 1992. – 368 p. – (foydalanilgan sahifalar: 112–145).
3. Augustine A. The City of God. – London: Penguin Classics, 2003. – 1184 p. – (foydalanilgan sahifalar: 247–270).
4. Aquinas T. Summa Theologica. – New York: Benziger Brothers, 1947. – 1020 p. – (foydalanilgan sahifalar: 301–325).
5. More T. Utopia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2002. – 176 p. – (foydalanilgan sahifalar: 38–64).
6. Campanella T. The City of the Sun. – Berkeley: University of California Press, 1981. – 144 p. – (foydalanilgan sahifalar: 27–45).
7. Bacon F. New Atlantis. – Oxford: Oxford University Press, 1996. – 128 p. – (foydalanilgan sahifalar: 51–70).
8. Rousseau J.J. The Social Contract. – London: Penguin Books, 2004. – 192 p. – (foydalanilgan sahifalar: 59–83).
9. Montesquieu C. The Spirit of the Laws. – Cambridge: Cambridge University Press, 1989. – 704 p. – (foydalanilgan sahifalar: 211–239).

10. Kant I. Perpetual Peace. – Indianapolis: Hackett Publishing, 2003. – 120 p. – (foydalanilgan sahifalar: 33–48).
11. Marx K., Engels F. The Communist Manifesto. – London: Penguin Classics, 2002. – 96 p. – (foydalanilgan sahifalar: 12–28).